

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



13.00.05- KASB-HUNAR TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD)

kirish imtihoni

D A S T U R I

Buxoro – 2025

Mazkur dasturda 13.00.05- Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD) kirish imtihoni topshiruvchilarning «Kasbiy pedagogika», «Kasb ta'limi metodikasi», «Kasbiy ta'lim uslubiyoti» fanlari bo'yicha bilimni imtihon orqali tekshirish uchun tavsiya etiladigan savollar, mavzu yo'nalishlari, izlanuvchilar javoblarini baholashda e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'lgan jihatlar belgilab berilgan.

Tuzuvchilar:

Z.Sh.To'xtayeva Bux DTU "Magistratura" bo'limi boshlig'i, professor

U.A.O'rinov Bux DTU "TMJ" kafedrası mudiri, professori

Taqrizchilar:

Adizov B.R.

Bux DU professori, pedagogika fanlari doktori

Hamroyev A.R.

Bux DU professori, pedagogika fanlari doktori

13.00.05- Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD) kirish imtihoni dasturi Buxoro davlat texnika universiteti kengashining 2025 yil 29.09 dagi 2 -sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Mamlakatimizda ijtimoiy institut bo'lgan oliy ta'lim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun zarur maskan hisoblanib, nafaqat barqaror va ustun bo'lishi, balki tez o'zgarayotgan va kutilmagan globalashirilgan jamiyatda muammolarni hal yetish uchun doimiy rivojlanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-apreldagi PF-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PQ-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Iqtisodiyotimizning barcha jabhalaridagi kabi ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar ham o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ta'lim tizimida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

"Ta'lim to'g'risida"gi talablar asosida ma'naviy yetuk, erkin fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda bo'lajak o'qituvchilarni axborot madaniyatiga ega bo'lgan, mustaqil ishlashga yo'naltirish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ta'lim tizimini isloh qilishdagi asosiy vazifalardan qilib qo'yilganligi ham bejiz emas.

Bugungi kunda oliy va kasb-hunar tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ta'limni axborotlashtirish va elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish, ularni o'quv jarayoniga joriy qilib borish hamda rivojlangan davlatlarning kasbiy ta'lim tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga tadbiq etish hisoblanadi.

Ta'lim jarayoniga kasb ta'limini ta'sirini e'tiborga olgan holda, ko'pgina pedagoglar kasb ta'limini o'zlarining uslubiy ishlari tizimiga keng joriy etib bormoqdalar. Kasb ta'limini o'quv-tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan ijobiy tomonga o'zgartirib yubordi.

«Kasbiy pedagogika», «Kasb ta'limi metodikasi», «Kasbiy ta'lim uslubiyoti» fanlari O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasb ta'limi jarayoniga keng tatbiq etishning nazariy-metodologik asoslarini qamraydi.

Mazkur dasturda 13.00.05- Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD) kirish imtihonlari topshiruvchilarning «Kasbiy pedagogika», «Kasb ta'limi metodikasi», «Kasbiy ta'lim uslubiyoti» fanlari bo'yicha bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida o'tkaziladigan imtihon uchun tavsiya etiladigan savollar, mavzu yo'nalishlari, izlanuvchilar javoblarini baholashda e'tiborga olish maqsadiga muvofiq bo'lgan jihatlari belgilab berilgan.

«Kasbiy pedagogika», «Kasb ta'limi metodikasi», «Kasbiy ta'lim uslubiyoti» fanlaridan imtihon dasturini shakllantirishda ta'lim sohasidagi islohotlar va uni amalga oshirayotgan mutaxassis kadrlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar hisobga olingan.

«Kasbiy pedagogika», «Kasb ta'limi metodikasi», «Kasbiy ta'lim uslubiyoti» fanlaridan imtihon dasturi o'z tarkibiga pedagogika va boshqa ta'lim yo'nalishlarining ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni boshqarishga doir dolzarb muammolarni samarali hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlarga oid savollarni qamrab olgan.

TALAB QILINADIGAN ZARURIY BILIMLAR MAZMUNI

1. "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmon va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida.

"O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda ta'lim muassasalari va ularni boshqarish haqida.

2. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati.

Ta'lim to'g'risidagi Qonunning maqsadi, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, ularda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid masalalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutq va ma'ruzalarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirishga doir yangicha yondoshuvlar.

3. «Pedagogik tsikl» - fan sifatida. Ularning predmeti, maqsad va vazifalari.

Pedagogika - ijtimoiy fan sifatida. Uning ta'lim va jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari boshqaruv, oliy ta'lim tizimi, uzluksiz ta'lim tizimi, oliy o'quv yurtlari, malaka oshirish va qayta tayovrlash, menedjer, boshqaruv funksiyalari, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, strategik reja, ko'nikma va malakalar, rivojlanish.

Pedagogika fanining tuzilishi. Ta'limda menejment fanining falsafa, pedagogika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, meditsina va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi.

Pedagogikani tashkil etishning bir butunligi, ta'limda boshqaruv jarayonlarini tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari.

Ta'lim alohida turlari (maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim ob'ektlari(ta'lim muassasalari va jarayonlari)ni boshqarish va qarorlar qabul qilish nazariyasining tamoyillari, metodlari, tashkiliy me'yorlari va texnologik usullarini rivojlantirish va qo'llash asosida boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim tizimidagi ob'ektlar va jarayonlarning tizimli aloqasi, faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanishini nazariy va amaliy tadqiq qilish.

4. Pedagogikaning tadqiqot yo'nalishlari.

Pedagogika sohasidagi pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (tadqiqotlarning g'oyaviy asoslari; ta'lim menejmenti taraqqiyotini fan sifatida tadqiq qilish yondashuvlari, ularning mutanosibligi va qo'llanish chegaralari; ta'limni boshqarish muammolarini pedagogik tadqiq qilishning mazmuni, tashkil etilishi va metodlari; ta'lim menejmenti predmet sohasining rivojlanishi; pedagogika fani va ta'lim tizimlarini boshqarish amaliyotining o'zaro dialektik bog'liqligi; ta'limni boshqarish sohasidagi prognostik tadqiqotlarni va pedagogik tadqiqotlar sifatini metodologik asoslash).

Pedagogik tizimlarni boshqarish metodologiyasi (ta'limni tashkil qilish va rivojlantirishda boshqarishning o'rni va roli; ta'lim menejmenti fanining ob'ekti, predmeti tadqiqot metodlari).

Ta'lim tizimlarini boshqarishning nazariyasi va amaliyoti haqidagi pedagogika fanining rivojlanish tarixi (ta'limni boshqarish amaliyotining tarixiy rivojlanishi tahlili; ta'lim menejmentiga oid ilmiy-pedagogik g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi; o'tmishning mashhur pedagoglarining ta'limni tashkil qilish va boshqarish haqidagi pedagogik merosini monografik o'rganish; ta'limni boshqarishga doir pedagogik leksiya va atamalarini rivojlantirish).

Ta'limni boshqarish konsepsiyalari (ta'lim boshqaruvini rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy shartlari; ta'limni boshqarishning ijtimoiy samaralari; ta'lim sohasini boshqarish tizimlari va mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish texnologiyalari; uzluksiz ta'lim tizimini boshqarish; kattalar ta'limini boshqarish;

ta'limdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish; ta'lim tizimlarini boshqarish; masofaviy va media-ta'limni boshqarish nazariyasi va amaliyoti).

Pedagogikada boshqarish va qaror qabul qilishning nazariy asoslari, ta'limni boshqarishga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'limda boshqaruv tuzulmalarini loyihalashtirish.

Pedagogikada menejment fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Nazariy tadqiqot metodlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari ilmiy kuzatish, subbat, intervyu, so'rovnom, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba - sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

5. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda amaliy pedagogika.

Ta'limni tashkil etish va boshqarishda nazariyaning boshqarish amaliyoti bilan aloqasi. Ta'limda innovatsion boshqaruv. Ta'lim muassasalarida tajriba-sinov boshqarish faoliyati, ta'lim menejeri kasbiy faoliyatini, shu jumladan, uning mohiyatini, tuzilishini, funksiyalarini tizimli o'zgartirish, ta'limni boshqarish sohasidagi jamoa tashkilotlari faoliyati, ta'limda ijtimoiy sheriklikni boshqarish, korporativ boshqaruv.

Qiyosiy menejment. O'zbekistonda, dunyoning turli mamlakat va mintaqalarida ta'limni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning holati, qonuniyatlari va tendensiyalari, ta'limni boshqarish an'alarini taqqoslash, ta'limni boshqarish sohasidagi ilg'or tajribalarni aniqlash; ta'limni boshqarish sohasidagi horijiy tajribalardan foydalanish orqali milliy ta'lim tizimlarini o'zaro boyitishning imkoniyatlari, asoslanishi va yo'llari.

Ta'limni boshqarishning pedagogik jihatlarini fanlararo tadqiq qilinishi (turli fan sohalarining bilimlari integratsiyasi asosida ta'limni boshqarishning rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq qilish; ijtimoiy-siyosiy faoliyat nuqtai-nazaridan ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini tadqiq qilish).

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan boshqarishning tamoyillari, metodlari, tashkiliy me'yorlari va texnologik usullari. Ta'limda menejmentning modellari hamda ta'lim tizimida boshqaruv masalalarini hal qilish va qaror qabul qilish samaradorligini baholash. Ta'lim tizimi rahbar kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish, ta'lim menejerlarining kasbiy kompetentligini oshirish.

6. Didaktika - ta'lim nazariyasi. Pedagogikaning nazariy asosi sifatida.

Ta'lim paradigmalar. Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika)-ta'lim menejmentining nazariy asosi sifatida. Uning jamiyatda tutgan o'rni.

Didaktikaning vazifalari va ahamiyati, asosiy tushunchalari. Hozirgi davr didaktika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari (konsepsiyalari). Uzlaksiz ta'lim konsepsiyasi. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi konsepsiyasi. Rivojlanuvchi va

tarbiyalovchi ta'lim konsepsiyasi. Uni hozirgi davr pedagogikasida amalga oshirishga turlicha yondashuvlar. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish konsepsiyasi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari.

Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmalari an'anaviy-konservativ, ilmiy, insonparvarlashgan (mantiqiy), ratsionalistik (bixevioristik), texnokratik, ezoterik.

7. Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari.

Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta'lim turlari: ilustrativ (an'anaviy); problemali (muammoli); programmalashtirilgan ta'lim.

Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg'unlashtirish. Ta'limni tashkil etishning no'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnilar klubi, musobaqa darslari, auktsion, mo'jizalar maydoni, tergovni bilimdonlar olib boradi, bayt-barak va boshqalar.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiyalar.

Ta'limni tashkil etish shakllarini rivojlantirish istiqboli.

O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to'garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar.

O'qituvchi faoliyatida, o'quv ishlari turli shakllarining o'zaro aloqadorligi.

8. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda boshqaruv maqsadi va funksiyalari.

Boshqaruv maqsadi, maqsad turlari. Maqsadlar kaskadi (pog'onalari). Boshqarish funksiyalari. Boshqaruv usullari. Boshqaruv usullari to'g'risida tushuncha. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik usullari.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va undagi islohotlar. Ta'lim tizimini isloh qilish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va uni boshqarish. Menejer. Menejer va rahbarlik usubi. Boshqaruv pog'onasi. Boshqaruv usubi. Rahbarning ish usubi. Rahbar fazilatlar. Rahbar madaniyati.

Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar. Boshqaruv qarorlari elementlari. Umumiy qaror, strategik qaror, taktik qaror. Maxsus qaror va boshqalar. Qaror qabul qilish. Qarorlarni ishlab chiqish va uni qabul qilish. Qarorlarni ijrosini uyushtirish va ularning

bajarilishini nazorat qilish. Vaziyatni tahlil qilish. Qarorlarni bajarish. Qarorlarning bajarishga rahbarlik qilish.

9. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda pedagogika funksiyasi.

Pedagogika funksiyasi: rejalashtirish, strategik rejalashtirish. Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi. Strategik rejalashtirishni jarayoni. Maqsadlarni tanlash. Strategik rejani tuzilishi. Kuchli va zaif tomonlar, tashqi muhitni tahlil etish va baholash. Nazorat haqida tushuncha. Nazoratning mazmuni va mohiyati. Asosiy nazorat turlarini amalga oshirish. Oldindan nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat. Oldindan nazoratni olib borishda inson moddiy va moliyaviy resurslar. Nazorat jarayoni: standartlarni belgilash, erishilgan natijalarni standart bilan o'lchash. Nazoratda hatti-harakatlar bo'yicha tavsiyalar.

Ta'lim muassasasi rahbari – lideri. rahbarlikni balanslash. Majburlashga asoslangan boshqarish (qo'rqitish, kuchli va kuchsiz tomonlari). Urf-odatlar, traditsiyalar orqali ta'sir etish. O'mak bo'lish orqali ta'sir. Xarizm yordamida ta'sir. Istirok etish va ishlantirish orqali ta'sir. Rahbarning kuchli va kuchsiz tomonlari.

10. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligi.

Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligining asosiy komponentlari. Rahbarning boshqaruv sohasi bo'yicha ilmiy-nazariy bilimiga egaligi. Ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini me'yoriy talablar asosida tashkil eta olishi. Boshqalar fikrini hurmat qilishi va uni namoyish eta olishi. Boshqalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot manerallarini tanlay olishi. O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruxlantiruvchi) muloqot manerallarini tanlay olishi. Ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari va tinglovchilar bilan me'yoriy-huquqiy munosabatlarga kirisha olishi. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi o'qituvchilarning turli pedagogik hamjamiyatlarida ishtirok etishi.

11. Ta'limni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalari.

Muomala madaniyati. Munosabat, qayta bog'lanish va uning turlari. Qayta bog'lanishdan maqsad va havf omillari. Qayta bog'lanish bo'yicha tavsiyalar. Samarali muloqotga to'siqlar. Boshqaruv samaradorligi. Boshqaruv samaradorligi tushunchasi va uning mezonlari. Boshqaruv resurslari va samaralari. Boshqaruv harajatlari. Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari.

Nizolarni boshqarish. Nizo, ularning kelib chiqish sabablari va turlari. Ichki nizo. Shaxslararo nizo, shaxs va guruh o'rtasidagi nizo. Guruhlararo nizo. Ochiq, yopiq, ob'ektiv, sub'ektiv, konstruktiv nizolar. Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish yo'llari. Stress va uni boshqarish.

12. Ta'lim sohasini boshqarishning nazariyasi va amaliyoti haqidagi pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forbiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda ta'limni tashkil etish va boshqarishga oid g'oyalari.

XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda Amir Temurning markazlashgan mahalliy davlatining paydo bo'lishi va uning ilm-ma'rifatning taraqqiy etishidagi roli. Amir Temur davrida maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya xususiyatlari. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni tashkil etish va rivojlantirishdagi faoliyati.

XVII-XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Qizlar maktablarining o'ziga xosligi va boshqaruv uslubi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. Munavvar Qori, Avloniy, Behbudiyarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida ta'lim-tarbiyani tashkil etish va boshqarish haqida.

1917-1990 yillarda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

13. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning e'lon qilinishi va ta'lim tizimidagi islohotlar. Milliy maktabni tashkil etish muammolari. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi haqidagi qarashlari.

Ta'limning alohida turlari (maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)da amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni va maqsadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarga yangicha yondashuvni ilgari surilishi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish masalalari.

14. Hozirgi davrda jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limni boshqarish.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish amaliyoti.

Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida ta'limda menejment fani va uning asosiy yo'nalishlari.

AQSh, Yaponiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'limda menejmentni tashkil etishning mazmuni va taraqqiyoti.

Fanlardan nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» 2020 yil 23 sentyabrda O'RG-637-sonli Qonun mazmuni va mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmon mazmuni va mohiyati.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5812-sonli Qaror mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevralda "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qaror mazmuni va mohiyati.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 avgustda "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ulaming tashabbuslarini qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli Qarori mazmuni va mohiyati.
6. O'zbekiston Respublikasining «Im-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida» 2020 yil 29 oktyabrda O'RG-576-sonli Qonun mazmuni va mohiyati.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrda "Ilm fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni mazmuni va mohiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni mazmuni va mohiyati.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 dekabrda "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-sonli Qaror mazmuni va mohiyati.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli Qaror mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalari.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martda "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-sonli Qaror mazmuni va mohiyati.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 mayda "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-sonli Qaror mazmuni va mohiyati, maqsad va vazifalari.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustda 466-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi nizom mazmunini izohlab bering.

14. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy prinsiplari, yo'nalishlari, yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etishda imkoniyatlar.

15. Pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslarida maqsadli tayyorlash, ta'lim tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash omillari, elektron portfolio tizimi.

16. Professional ta'lim tizimida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash.

17. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy malakasini «WorldSkills» standartlari asosida baholash, ishchi kasblar bo'yicha «WorldSkills Uzbekistan» musobaqalarini o'tkazish maqsadlari.

18. Professional ta'lim muassasalari boshqaruv hamda pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish masalalari, elektron portfolio tizimi.

19. Malaka oshirishning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita shakllari, malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda Internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullaridan, vebinar texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish.

20. O'zbekistonda kasb va mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy standartlar joriy etilishining ahamiyati.

21. Mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amaliy va innovatsion loyihalar tanlovlari.

22. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot davrida kasbiy ta'limning rivojlanishi, tashkiliy shakllari. Ta'lim shakllari va bosqichlari.

23. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashab ijod etgan mutafakkir va marifatparvar olimlarning kasbiy ta'lim haqidagi g'oyalari.

24. Kasbiy ta'limni i rivojlantirish sohasida respublika va xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar, pedagoglar.

25. Professional ta'limi tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari, amalga oshirish shart sharoitlari va rivojlantirish bo'yicha takliflar.

26. "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi mazmuni.

27. Professional ta'lim dasturlarini YuNE SKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashtirish hamda Milliy kvalifikatsiya tizimini joriy qilinishining ahamiyati

28. Professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorining tarkibiy tuzilishi, maqsadi, qo'llanilishi, klassifikatorida keltirilgan asosiy tushunchalar mazmuni

29. Professional ta'limda ta'lim olish shakllari, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalarida ta'lim jarayonini tashkil etish.

30. Professional ta'lim mazmunini belgilovchi hujjatlar: malaka talabi, o'quv reja, dastur va shu kabilarni ishlab chiqishga qo'yilgan talablar.

31. Professional ta'lim tizimini metodik ta'minoti, darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.

32. Professional ta'limning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro aloqadorligi.

33. Professional ta'limda maxsus o'quv predmetlari va ishlab chiqarish ta'limining o'zaro aloqadorligini ta'minlash haqida.

34. Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish. Dual ta'lim asosida o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotlarini olib borish

35. O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy ta'lim tizimining maqsadi, tuzilishi va asosiy vazifalari.

36. Professional ta'lim metodlari, o'qitish usullari, o'qitish vositalari.

37. Masofaviy ta'limning nazariy-uslubiy asoslari, didaktik tamoyillari va tashkil etish usullari

38. Kasbiy standart nima? Kasbiy standartlarni ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish va uning ta'lim sifatiga ta'siri.

39. Dual ta'limda o'quv jarayoni va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning mohiyati va bu boradagi xorijiy tajribalar.

40. Professional ta'limda o'quv-uslubiy majmualar. O'quv-uslubiy majmualarning tarkibiy qismlari, ularga qo'yilgan talablar (taqvimiy mavzular rejasini, ta'lim texnologiyasi, ma'ruzalar matni va shu kabilar).

41. Kasbiy ta'lim pedagogikasi va metodikasi fanining predmeti, mazmuni va vazifalari.

42. Muammoli ta'lim texnologiyalari, nazariy asoslari, maqsad va vazifalari, vositalari.

43. Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va orta maxsus professional ta'lim darajalarida mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish masalalari

44. Professional ta'limda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va uning mohiyati.

45. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarning kasbiy kompetentligini o'quv va ishlab chiqarish amaliyotida rivojlantirish.

46. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar. Ishsizlar va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish masalalari.

47. Professional ta'limda o'qitish metodikasining tarkibi va tuzilishi. O'qitish usullari, o'qitish vositalari.

48. Ishlab chiqarish ta'limining o'ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirish shart-sharoitlari. Mashq - ishlab chiqarish ta'limining asosiy metodlaridan biri sifatida.

49. Kasbiy ta'lim pedagogikasida ta'lim metodlari. O'qitishda ko'rgazmalilik. Ko'rsatish va tushuntirishning uzviyligi.

50. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash usullari, vositalari hamda mezonlari. Og'zaki, yozma, test tizimidan foydalanishning afzallik hamda kamchiliklari

51. Ma'ruza, seminar, muammoli, modulli, didaktik-o'yinli, laboratoriya darslari va amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari.

52. Mantiqiy metodlar: taqqoslash va analogiya, umurnlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez.

53. Amaliy va nazariy o'qitishning metodologik asoslari. Ishlab chiqarish ta'limi prinsiplari va metodlari.

54. Mehnat va professional ta'lim izchilligini ta'minlashning ilmiy asoslari.

55. Matematik modellash va hisoblashda loyihalash usullari.

56. Bir soatlik nazariy va amaliy dars rejasini tuzish, uni tahlil qilish.

57. Ikki akademik soatlik nazariy va to'rt akademik soatlik amaliy dars rejasini tuzish, uni tahlil qilish.

58. Ushbu asosiy "Ko'nikma", "Kvalifikatsiya", "Kompetensiya", "Kasbiy kompetensiya" tushunchalariga ta'rif berish.

59. Darslarning turlari, ko'rinishlari va tuzilishi. Zamonaviy va an'anaviy darslarning o'ziga xos xususiyatlari

60. Dasturiy o'quv materialni o'quvchilar o'zlashtirishliklarining sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etish yo'llari.
61. Professional ta'lim metodlari, yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi.
62. Kasbiy pedagogikda tadqiqot usullari va ularni qo'llash tajribalari.
63. O'qitishda texnik vositalardan foydalanish. Texnik vositalarning turlari, tavsifi.
64. Kompyuter va matematik modellashlash asoslari va uning o'ziga xosligi. Matematik modellashlashning asosiy prinsiplari va hisoblashda loyihalash usullari.
65. Professional ta'limda matematik metodlar, yangi innovatsion axborot texnologiyalarni qo'llash.
66. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.
67. Mehnatni ilmiy tashkil qilish va ishlab chiqarishning iqtisodiy asoslari.
68. Professional ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish.
69. Boshlang'ich professional ta'lim darajasida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuv.
70. Kasbiy ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlari.
71. Ilmiy darajaga ega bo'lish, unga qo'yiladigan talablar, maqsad va vazifalari, ta'lim tizimidagi salohiyat.
72. Kasbiy ta'lim pedagogikasida o'qitish metodlari.
73. Kasbga yo'naltirib o'qitishda elektron ta'lim resurslarini loyixalash. Elektron ta'lim resurslarining o'quv jarayonlarini tashkil etishdagi ahamiyati
74. Professional ta'limni tadqiq etish metodlari: (pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; kuzatish, pedagogik tajriba sinovlarini o'tkazish); yozma so'rovnomma, ekspert baholash; mohiyati, maqsadi va vazifalari
75. Hamkorlik pedagogikasi va uning vositasida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirish.
76. Pedagog o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini tubdan yangilash: holat, tavsiyalar, tanqidiy baho bering.
77. Professional ta'lim tizimiga raqamli ta'lim kontentlarni joriy etish, o'qituvchi-pedagoglarning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha savodxonligini oshirish masalalari
78. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarining maqsadi, mazmuni, ularni tashkil etish, o'tkazish shart-sharoitlari hamda muammolari
79. Pedagogik mahoratni oshirish shakli va metodlari.

80. Hayot davomida ta'lim olish» prinsipi asosida boshqaruv hamda pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish;
81. Boshqaruv va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati natijalarini baholashda elektron portfolio tizimining ahamiyati
82. O'quvchilarning o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish.
83. Professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarning klasterli yondashuv asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.
84. Milliy malaka tizimini tashkil etish orqali mehnat bozori va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.
85. Mehnat bozorida kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va "Buyurtmalar portfeli"ni shakllantirish.
86. Professional ta'lim muassasalari pedagoglarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Ishlab chiqarish korxonalarida stajirovkalar tashkil etish orqali malakasini oshirish
87. Ilmiy maqolani shakllantirishda quyidagilarni izohlang: ilmiy maqola mavzusi, annotatsiya, tayanch so'z va iboralar, kirish, mavzuga oid adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar
88. Professional ta'limni hozirgi davrdagi asosiy muammolari hamda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari.
89. Scopus, Science direct, Web of Science kabi xalqaro ilmiy bazalarda maqollar chop etishning ahamiyati, talablar va shakllantirish tartiblari. h-indeks yoki Xirsh indeksi nima?
90. Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda quyidagilarni izohlang: tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, tadqiqot ob'ekti, tadqiqot predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.
91. Ilm-fan sohasidagi muammolar, ilmiy-tadqiqotlar natijalari va texnologik ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish masalalari.
92. Professional ta'lim o'qituvchilarini innovatsion ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash.
93. Ilmiy tadqiqotlarni olib borishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.
94. Nazariya ilmiy izlanish jarayoni va natijasi sifatida.
95. Metodik ilm-fanni rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar
96. Iqtisodiyotning dolzarb muammolari ha' etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarni tashkil etish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash muammolarini ha' etishga yo'naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion izlanishlarni amalga oshirish masalalari

97. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida amaliy hamda innovatsion loyihalar tanlovlari.
98. Ilmiy tadqiqot texnologiyasi. Ilmiy tadqiqotda metodologiya va metodlar. Gipoteza va uning tadqiqot jarayonidagi roli.
99. Im-fan va ilmiy faoliyatga xorijiy davlatlar donor tashkilotlarining grantlari, texnik ko'mak va boshqa mablag'larini jalb etish, innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni tashkil etish.
100. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14 sentyabridagi "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi O'RQ -406-sonli Qonuni.
4. 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi", 2019-yil 8-aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5099-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-sonli Qarori.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan biga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom yettirib,

- yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
13. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan yeng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
 14. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farvon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
 15. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
 16. Abdiqudusov O., Rashidov H. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llama. O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2009. 120 b.
 17. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. "Muallif" 2001.
 18. Axmetjanov M.M., Olimov Sh.Sh. Pedagogika. "Muallif" 2018. 364 b.
 19. Ibragimov X, Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.
 20. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat /T.: TDPU. – 2003. – T. 174.
 21. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. G.N. Axunova. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – 2011.
 22. Batushev S.Ya. Professionalnaya pedagogika: uchebnik. M.: Professionalnoe obrazovanie 3-izd. 2010 g.
 23. Uzlusiz ta'lim tizii uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konseptsiyasi. / tuzuvchilar: A.A. Karimov, E.Z. Imamov, Q.I. Ro'ziev, O.S. Bo'tayorov. – T.: "Sharq" NMAK. 2002. 16 b.